# KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Abdusattorov Faxriddin Baxodirjon o‘g‘li**
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
magistranti

Qabul qilindi: 01.02.2026 **Tasdiqlandi**: 02.02.2026
Ko‘rib chiqildi: 02.02.2026

Hozirgi davrda kambag’allik va qashshoqlik - bu murakkab, ko'p qirrali va "tasviriy" global muammo hisoblanadi. Bevosita kambag’allik va qashshoqlik terminlari o’zaro farqlanishiga keladigan bo’lsak, hozirda jahon boylab kambag’allik yoki qashshoqlik tushunchalarining umumiy qabul qilingan hamda yagona kelishilgan ta’rif ishlab chiqilmagan. Har bir mamlakat o’zi uchun belgilangan kambag’allik mezonidan kelib chiqib tavsiflaydi.

Qashshoqlik – insonning hayot kechirishi uchun zarur bo’lgan daromad va resurslar yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va toyib ovqatlanmaslik, sog’liqni saqlash, ta’lim yoki boshqa asosiy xizmatlaridan foydalanishda cheklovlarning mavjudligi, turar joyning yo’qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytiladi.

Kambag’allik esa insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo’lmasligi, jamiyatda to’laqonli ishtirok etish uchun to’siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta’lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta’minlash imkoniyatlari yetishmasligi hamda kredit olish imkoniyatining cheklanganligida namoyon bo’ladi. Shuningdek, kambag’allik – bu insonlar, uy xo’jaliklari va jamoalarining ijtimoiy jihatdan chegaralanganligi, xavf-xatarlar oldida chorasizligi hamda nochorligi sanaladi.

O’zbekistonda ilk bor kambag’allik masalasi 2020-yilning 24-yanvarda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasida ko’tarilib, mazkur mavzu ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy kun tartibiga olib chiqildi. Bu borada, Davlatimiz rahbari shunday o’ziga xos yondashuvni ilgari surdiki, unga ko’ra “Kambag’allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko’paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o’qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg’otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o’qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to’lash tizimini joriy qilish kerak” (Mirziyoyev, 2020).

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti ko’rsatmalari va tashabbusiga binoan, kambag’allikni qisqartirishning aniq dastak va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribani inobatga olgan holda kambag’allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubi, ijtimoiy ta’minotning minimal standartlari va meyoriy asoslarini puxta ishlab chiqish maqsadida Iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligining

tashkil etilishi esa aynan ushbu vazifalarni ijrosini tizimli ta’minlashda amaliy qadamgina bo’lib qolmasdan, yurtimizda kambag’allikni qisqartirish borasida tarixiy institutsional islohotlar amalga oshirilayotganining yorqin ifodasidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi deb qayta tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish maqsadida hududiy boshqarmalar va tasarrufidagi tashkilotlar shu jumladan, Kambag’allikni qisqartirish va mehnat masalalari ilmiy tadqiqot instituti, Bandlikka ko’maklashish markazi, Oila va xotin-qizlar instituti, Tashqi mehnat migratsiya agentligi, “Ishga marhamat” monomarkazlari, Kasb-hunarga o’qitish markazlari, Mahallabay ishlash va Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tashkil etildi.

Kambag’allik kamaytirishda dunyo boyicha Xitoy tajribasi namuna sifatida olindi. Lekin Kambag‘allikni qisqartirish borasida bir mamlakat tajribasini boshqa mamlakatda aynan qo‘llash imkoniyati, ya’ni yagona formulaning mavjud emasligi O‘zbekistonda ham xalqaro tajribani inobatga olgan holda, aholining ehtiyojmand qismini qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos tizimini yaratishni taqozo etdi.

Albatta, yuqorida qayd etilganidek, global miqyosida dunyo manbalarining bosh mavzusiga aylanayotgan muammolardan biri bo’lgan kambag’allikni qisqartirishning to’g’ri va eng samarali usul iqtisodiyotda band aholi sonini oshirish, ularga munosib va mehnat unumdorligi bo’lgan to’liq ish bilan band bo’lishini ta’minlash, qishloq joylarida tadbirkorlikuchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Kambag’allikni yuzaga keltiradigan bosh omil ishsizlik darajasining yuqoriligi, ishchi kuchi qatlamining bugungi zamon talabi darajasiga mos emasligi, inson kapitali qiymatining mehnat umumdorligi nuqtai-nazaridan orqada qolayotganligida, deb baholash mumkin. Kambag‘allikni kamaytirishda mehnatga to‘lanadigan ish haqqini bozor konyunkturasidagi narxlar o‘sishiga muvofiq oshirib borishga e’tibor qaratish lozim. Hozirgi kunda mehnatga to‘lanadigan ish haqi xodimning ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan funksiyasini bajarmay kelmoqda. Bu o‘z navbatida mamlakat uchun zarur bo‘lgan ishchi kuchi bilan ta’minlash, ishchilarni samarali ishlashga rag‘batlantirish, aholini iste’mol qobiliyatini oshirish va mehnat bozorini rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Kambag’allik, uni aniqlash va qisqartirish bilan bog’liq masalalar bir qator mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar, tadqiqotchi va amaliyotchilar tomonidan tegishlicha o’rganilgan.

Xususan, O’zbekistonlik iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar qatorida Abdurahmonov (2014), Jumanova (2008), Ibragimova (2023), Muhitdinova (2023), Xashimov (2021) va boshqalarning ilmiy izlanishlarida kambag’allikka oid masalalar alohida muammo sifatida chuqur o’rganishga harakat qilingan.

Aholi daromadi tengsizligi va kambag'allik bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik boyicha D.Rikardo, R.Solou, A.Sen, A.Didont kabi ko'plab mumtoz neoklassik iqtisodchilar va Nobel mukofoti laureatlari nazariy va empirik tadqiqotlar o'tkazgan bo'lib, ularda yalpi ichki iste'mol, texnologik rivojlanish, mehnat unumdorligi, aholi salomatligi, soliq bazasi va boshqa shu kabi omillar tahlili asosida, kambag'allik kam bo'lgan jamiyatlarda, iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqoriroq bo'lishini nazariy isbotlashgan.

Rossiya va boshqa MDH davlatlari iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar kambag'allik qisqartirish boyicha ilmiy izlanishlar olib borildi va o'zlarini fikr-mulohazalar berildi. Masalan: Bir qator olimlarning fikricha, Maxalina (2022), "Ijtimoiy davlat har doim odamlarga yordam ko'rsatish uchun javobgardir. Zamonaviy ijtimoiy davlatda fuqarolarga kambag'allik va qashshoqlikdan chiqish imkoniyatlari va qutulish yo'llarini ta'minlash kerak va bu ijtimoiy norma hisoblanadi " (Maxalina, 2022).

Shunday qilib, Bezverxi (2020) ijtimoiy holatlarni o'rganar ekan, "Ijtimoiy munosabatlarning umumiy insonparvarlik xalqaro hamjamiyatning Markaziy va Sharqiy Afrikaning o'ta qashshoqligi uchun javobgarlikni his qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, faravon hayot kechirayotganlar alohida mas'uliyatni his qiladilar ", deb ta'kidlaydi (Bezverxiy, 2020).

Qashshoqlikni bartaraf etishga qaratilgan siyosiy yondashuvlar jamiyat va davlatda qashshoqlikning sabablari qanday tushunilishi bilan bevosita bog'liqdir (Chabanyuk, 2022).

Qashshoqlik muammolari turli ilmiy nazariyalar va mafkuraviy oqimlar doirasida turlicha izohlanadi. Ba'zi tadqiqotchilar qashshoqlikning kelib chiqishini, birinchi navbatda, kambag'allarning o'ziga xos quyidagi hatti-harakatlari bilan moyillikni bildiradi:

- Hayot yo'nalishi, maqsadlari va turmush tarzini noto'g'ri individual tanlash;
- Kambag'al oiladan kelib chiqish; (alohida noto'g'ri tanlangan maqsad, va turmush tarzi

bilan izohlanadi);

- Kasbiy bilimlarni yetarli emasligi;
- Kasbga mos keladigan ish o'rinlarini mavjud emasligi;
- Boshlang'ich kapitalning yetarli emasligi;
- Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi qiyinchiliklar.

D.Gobson, D.Saks, G.E.Slezinger, Z.Uilam, F.Uilams, R.Xayfman singari yetuk xorijiy iqtisodchi olimlar kambag'allik va aholining boshqa ijtimoiy muammolarini o'rganish borasidagi ilmiy nazariyalarni yanada boyitishga erishgan (Gelvanovskiy, 2008).

Jahon banki tadqiqotchilari iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini oshirish iqtisodiy erkinliklarning yo'qligi bilan cheklanganligini aniqlandi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va kambag'allar mulkiy huquqlarini, ayniqsa yerga bo'lgan

huquqlarini kengaytirishni talab qiladi. Samarasiz muassasalar, korrupsiya va siyosiy beqarorlik investitsiyalarni susaytirsa, sog'liqni saqlash, ta'lim va infratuzilmani rivojlantirishga grantlar va hukumat yordami esa inson va jismoniy kapitalni oshirish orqali iqtisodiy o'sishga katta yordam beradi (Melikyan, Kolosova, 2014).

Boshqa bir qator tadqiqotchilar esa ko'plab buyuk imperiyalarning parokanda bo'lishi va davlatlarning inqirozga yuz tutishini o'rganib, aholini kambag'al qatlami ortishini faqatgina geografik, iqlim, din, siyosiy arboblarning kambag'allik masalasiga e'tiborsizligi kabi omillar tushuntira olmasliklarini isbotlashadi. Ularning tadqiqotlarida bardavom iqtisodiy faravonlik jamiyatda barcha qatlamlarining siyosiy va huquqiy manfaatlariga teng xizmat qiluvchi "inklyuziv" institutilar roliga bog'liq. Ya'ni ko'p fikrlilik va demokratiya jamiyatda iste'dod va ijodiy g'oyalarni qo'llashga imkon yaratib jamiyatlarni olg'a rivojlantiradi. Bunga teskari ravishda jamiyatda siyosiy va huquqiy qaror qabul qilish tor doiradagi hukmron qatlam qo'lida bo'lsa, ular boshqa aholi qatlamini ekspluatatsiya qilishlari va elita bo'lmaganlarni mablag'larini so'rish uchun "byukratik" tashkilotlar yaratiladi. Byukratik tashkilotlari mavjud davlatlar esa katta iqtisodiy rivojlanishiga erisha olmagan, chunki oddiy xalqda tadbirkorlik va investitsiya bilan shug'ullanishga katta ishtiyoq bo'lmaydi. Shu sabab, qashshoqlikga qarshi kurashadigan davlatlar, aholini siyosiy va huquqiy tengligini, ularning ovozlari inobatga olinishlari uchun sog'lom muhit yaratishsa, muammo samarali hal bo'ladi, deb ta'kidlashadi.